

MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Abdurasulov Muxtorbek Bo'ri o'g'li

*Termiz Davlat Pedagogika instituti, Pedagogika va
ijtimoiy fanlar fakulteti, Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi, talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari huquqiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan tahlil etilgan. Unda mafkuraviy xavfsizlikning huquqiy asoslari, konstitutsiyaviy tamoyillari, davlat siyosatidagi o'rni hamda huquqiy madaniyat va milliy mafkura o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqolada milliy g'oya, ma'naviyat, huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyati tushunchalarining mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mafkuraviy xavfsizlik, huquqiy davlat, milliy g'oya, ma'naviy immunitet, huquqiy madaniyat, konstitutsiyaviy qadriyatlar, mafkuraviy tahdid, milliy mafkura, huquqiy siyosat.

Mafkuraviy xavfsizlik - bu davlatning siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi, fuqarolarning ongini yot g'oyalardan himoya qiluvchi tizimdir. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida mazkur masalaning dolzarbligi yanada ortmoqda. Globallashuv, axborot oqimining kengayishi, tashqi g'oyaviy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida har bir davlat o'z mafkuraviy mustahkamligini, milliy qadriyatlarini himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarni yaratishga majbur bo'lmoqda va bu borada prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida bu borada shunday deydi:

"Jamiyatda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash — bu faqat ma'naviy emas, balki huquqiy jarayondir. Chunki inson huquqlari, adolat va erkinlik

g'oyalari himoya qilinmasa, mafkuraviy xavfsizlik haqida gap bo'lishi mumkin emas." [2.92].

Mafkuraviy xavfsizlikning asosiy maqsadi – jamiyatda yot, ekstremistik, separatistik yoki radikal g'oyalarning tarqalishiga huquqiy to'siq qo'yish, milliy qadriyatlarni, diniy bag'rikenglikni va milliy birlikni saqlab qolishdir. Bu masalaga muhtaram birinchi prezidentimiz I.A. Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida *“Bugun dunyoda qurolsiz urush – g'oyalar urushi ketmoqda. Kimning g'oyasi kuchli bo'lsa, o'sha g'alaba qiladi.”*deya takidlab o'tadilar. [3.65].

Huquqiy nuqtai nazardan, mafkuraviy xavfsizlik inson huquqlarini, milliy manfaatlarni va konstitutsiyaviy qadriyatlarni himoya qiluvchi tizim sifatida talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi**ning 13-moddasida “Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat” sifatida e'tirof etiladi. Bu mafkuraviy tahdidlarga qarshi huquqiy poydevor vazifasini bajaradi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 32-moddasida “fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etish huquqi” [1] kafolatlanadi, bu esa mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda demokratik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida Mafkuraviy xavfsizlikni huquqiy jihatdan ta'minlovchi asosiy hujjatlar quyidagilardir:

1. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi**
2. **“Axborot xavfsizligi to'g'risida”gi Qonun**
3. **Prezident qarori PQ–3160-son, “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi qarori”**
4. **“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun**

Ushbu hujjatlar jamiyatning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, axborot makonida g‘oyaviy barqarorlikni saqlash, yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, diniy ekstremizm va axborot manipulyatsiyasiga qarshi kurashni huquqiy asosda tashkil etadi.

Milliy g‘oya – bu xalqni birlashtiruvchi, maqsad sari yetaklovchi g‘oyaviy kuch. U mafkuraviy xavfsizlikning ma’naviy tayanchi hisoblanadi. O‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, urf-odatlar, qadriyatlari, ona tiliga ehtiromi – mafkuraviy immunitetning eng kuchli manbai hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tabiri bilan aytganda *“Yoshlar ongida milliy g‘oya, vatanparvarlik, qonuniylik hissini shakllantirish — bu mafkuraviy barqarorlikning eng ishonchli kafolatidir.”* [2.118].

Huquqiy tarbiya tizimi esa ushbu jarayonni mustahkamlovchi huquqiy asosdir. “Huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”da aynan shu yo‘nalish ustuvor sifatida belgilangan. Unga ko‘ra, huquqiy ta’lim va tarbiya orqali yoshlarning g‘oyaviy qarashlari barqarorlashadi, ular yot mafkuralarga qarshi mustahkam pozitsiyaga ega bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda “axborot makonida himoya”, “mafkuraviy tahdidlarga qarshi profilaktika” va “yoshlar ongida mafkuraviy immunitet” kabi yo‘nalishlar davlat siyosatiga aylangan. 2017-yilda tasdiqlangan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori shu maqsadga xizmat qiladi.

Bu qarorga ko‘ra:

- ma’naviyat va ma’rifat markazini qayta tashkil etish;
- diniy ekstremizm, axborot manipulyatsiyasi va radikalizmga qarshi profilaktika ishlari huquqiy asosda amalga oshiriladi;
- ommaviy axborot vositalarida huquqiy-mafkuraviy targ‘ibot kuchaytiriladi.

Natijada, mafkuraviy xavfsizlik nafaqat huquqni himoya qilish, balki jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamlash tizimiga aylandi.

Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash – bu faqat siyosiy yoki axborot masalasi emas, balki chuqur huquqiy va ma'naviy jarayondir. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, huquqiy davlatni barpo etish, milliy qadriyatlarni asrash va huquqiy ongni yuksaltirish mafkuraviy xavfsizlikning eng muhim kafolatidir. Milliy mafkura bilan huquqiy siyosat uyg'unligi jamiyatni tashqi g'oyaviy bosimlardan himoya qiladi, fuqarolarda mustaqil fikr, vatanparvarlik va qonuniylik tuyg'ularini kuchaytiradi. Shu ma'noda, mafkuraviy xavfsizlik – bu milliy suverenitetning ma'naviy himoyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Mirziyoyev, Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – T.: “O'zbekiston”, 2021. – 92 b.
3. Karimov, I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. – 65 b.
4. “Axborot xavfsizligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.2021-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-3160-sonli Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida, 28.07.2017 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-5618-son. JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDA, 09.01.2019 yil.